

## SHUHRAT MATKARIMNING “MAQAR” QISSASIDA INSON RUHIYATINING TASVIRLANISH

N. Urazova

Toshkent shahridagi Vestminster  
universiteti akademik litsey o‘qituvchisi,  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Kalit so‘zlar:** “Maqar” qissa, kichimlar, hissiyot, bolalik xotiralari, ruhiy holat, xorazm yo‘lbarsi, Nafisa, shafqatsiz o‘g‘illar, og‘ir kasallik, kitobxon, “Oq kema”

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Shuhrat Matkarimning “Maqar” qissasi haqida mushohada yuritilgan. Maqolada Maqar obrazining o‘ziga xos xususiyatlari, kecinmalari, o‘y-fikrlari, hayot haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada yozuvchining mahorati, o‘ziga xosligi, asarning badiiy qiymati haqida fikrlar bayon qilingan.

**Ключевые слова:** повесть «Макар», переживания, эмоции, воспоминания детства, душевное состояние, «Хоразмский тигр», Нафиса, жестокие сыновья, тяжёлая болезнь, читатель, «Белый пароход»

### Аннотация:

В данной статье рассматривается повесть Шухрата Маткарима «Макар». В статье анализируются особенности образа Макара, его переживания, мысли, взгляды на жизнь. Также освещаются мастерство писателя, его индивидуальность и художественная ценность произведения.

**Keywords:** the novella "Makar", experiences, emotions, childhood memories, psychological state, "The Tiger of Khorezm", Nafisa, cruel sons, serious illness, reader, "The White Steamship"

### Abstract:

This article explores Shuhrat Matkarim’s novella "Makar". It analyzes the unique features of the character Makar, his inner experiences, thoughts, and views on life. The article also highlights the writer’s craftsmanship, individuality, and the artistic value of the work.

Jamiyat hayotida adabiyotning o‘rni, uning rivoji, uslubiy jihatlari haqida gap borganda shuni ham aytish o‘rinliki turli davrlarda yozuvchilar, shoirlar, umuman qalam ahli o‘ziga xos adabiy oqimlar, yo‘nalishlarda ijod qilishga harakat qilganlar. Masalan, XX asrning 30-60- yillarida

ekzistensializm falasafasining eng muhim tushunchalari va g'oyalarini o'zida mujassam etgan o'sha davr uchun yangicha adabiy oqim kirib keldi. Unga ko'ra, inson hayot va o'lim chegrasiga tushganda o'z hayotining asl mohiyatini, ya'ni og'ir kasallik, o'lim xavfi, yaqinlardan ajralish, bolalik xotiralari, o'tmish va kelajak haqida yanada chuqur tushunishga, atroflicha mushohada qilishga intiladi. Shuhrat Matkarimning "Maqar" qissasini ham shu ma'noda mazkur yo'nalishda yozilgan asarlar sirasiga kiritisa bo'ladi. Asarda bosh qahramon Maqar - Xo'sinning hayoti, uning ruhiy holati, o'limi oldidan ko'nglidan o'tgan kechinmalari, hissiyotlari juda ta'sirchan tarzda, mohirlik bilan tasvirlangan. Maqar juda erta o'lim bilan to'qnash keldi. Ota-onasi erta vafot etib ketadi. Shuning uchun uning bolalik xotiralari xira, xorlik va zorlikda kechdi. Maqarning baxtiga befarzand, shaddod ammasi uni tarbiyalab oladi. U Maqarni hech narsaga zoriqtirmay o'stirdi. Uning asli ismi Xo'sin edi. Uni tuman voenkomi birinchi bor shunday chaqirdi. Qaysidir bayramda kolxoz raisi harbiylarga sovg'a-salom jo'natdi. Maqar ularni mashinasida olib bordi. Xo'sinni kuzatib qo'ygan harbiy Makar deb ataydi. Shu-shu u Makar bo'lib ketadi. Keyinchalik xalq uni Maqar deb chaqiradigan bo'ldi.

Maqar bolaligini eslaganda ko'z oldiga olovga qo'lini tiqib yonayotgan kitobni shoshib olyotgan Mulla ota keladi. Uning bolaligida bitta orzusi bor edi, u ham bo'lsa, Xorazm yo'lbarsini uchratish edi. U qarigan chog'da kunini ko'lga borib, baliq ovlash bilan o'tkazardi. Uning hayotdagi sevinchi, ovunchog'i shu ko'l va baliqlar edi. Baliq ovidan qaytar ekan, uni qishloq bolalari kutib olardi, shunday kunlarning birida u bolalikdagi orzusi bo'lgan Xorazm yo'lbarsini uchratdi. Aslida bu yo'lbars emas, ancha qarib qolgan it edi. Qari ko'ppak uning ko'ziga go'yo yo'lbars bo'lib ko'rinadi. Maqar tabiatan juda og'ir-bosiq, qo'y og'zidan cho'p olmagan odam edi. Lekin "yo'lbars"ni ko'rgan Maqarning yuragi gupillab urib ketdi. Hatto, yuragining urayotgani o'ziga ham eshitilardi. Shu erda kitobxonda savol tug'ilishi tabiiy: nima uchun qari bir itga shunchalik hayajon? Maqar itga yaqinlashgach uning ko'zidagi mungni ko'rib yoqasini ushlaydi, Nahotki, shu jonivorda shuncha g'am, alam, dard bo'lsa. Yozuvchi itdagi bu mungni qarilikning o'ziga xos vazminligi bilan izohlaydi: "Hovvo-daa, bu narsalar ham kundan kun og'irlashayotir, - itga murojaat qildi u. - yo qaridikmi? Anov baxshi ne degan edi? Ha hovvo-daa, "Qaridimmi, desam ko'nglim qoladur"... Sen buni mendan ko'ra ming marta yaxshiroq bilsangkerak, Ina, boshingda o'tib turibdi. Odam ham, hayvon ham, aslida, yoshligida kerak hammaga: do'stga ham, dushmanga ham. Shunday. Hovvo-daa. Yur, lekin qarri ham odam, non egisi, o'ynagisi, kulgisi keladi". Shu-shu Maqarning dardkashiga aylangan yo'lbars yillar davomida uni har kuni ko'ldan qaytishda kutib oladi. Bugun ham shunday bo'ldi. Har doimgiday Maqar ko'ldan chiqishi bilan "yo'lbars" kutib oldi. "Yo'lbars" shu yillar davomida ancha qarigan, kuchdan qolgan edi. Lekin bu safar Maqar juda sekin odimlar edi. Uning ichida og'ir dardi bor edi. Bu dard uning dinka madorini quritar, oyog'ini zo'rg'a sudrab bosardi: "Hech kimga aytma tag'in, mening ham ahvolim yaxshi emas, - dedi bir kuni Maqar orqasidan zo'rg'a ergashib kelayotgan itga qaramay. Uning boshini osib, diqqat

bilan tinglab kelayotganini bilardi.- Menam tomoq esam singmaydi. Ichimda bir og‘riq paydo bo‘ldi. Novvi ekanini bilmayman. Do‘xtir deysanmi? Bor do‘xtir. Lekin bu dunyodagi nasibam tugadimi deyman. Ne erdan bilasan, deysanmi? Bilaman. Bir narsaning bo‘lishini yuraging sezadi-ku. Keyin, haa, o‘zi yuragim sezuvdi- yov, deysanmi. Menda ko‘p bo‘ladi shu...Shunig uchun... do‘xtirdan qo‘rqib yuribman. Aytadigan gapini yuragim sezib yuribdi. Kuning tugagan deydi u”. Darhaqiqat, Maqarga oxirgi vaqtlarda kuchli og‘riq azob bermoqda edi, u hayotining so‘nggi kunlarini yashayotgani his qilmoqda edi. Dard kuchayib, o‘lim soati yaqinlashgan sari Maqar o‘tmishini, bolaligini, yoshligini, bolalarini o‘yladigan bo‘lib qoladi. Aslida Maqar juda muloyim, yuvvosh, olijanob, sodda odam edi. U hech qachon xotini va bolalaridan nimanidir talab qilib yashamagan. Topganini xotiniga olib kelgan. Nima uchun yashayotgani, hayot unga nimaga berilgani ham o‘ylab ko‘rmagan, uylanib, bola-chaqali bo‘lib, farzandlarini uyli joyli qilganda ham biror bir orzu bilan yashamaydi. U faqat o‘lim sharpasi yaqinlashgan, qornida qattiq og‘riq turganda bu hayot qanchalik shirinligini, yashashi kelayotgani his qiladi. O‘limni o‘ylaganda Maqarni qo‘rquv bosadi, g‘amga botadi. Adib Maqarning ruhiy holatini, kechinmalarini tasvirlar ekan, tabiat ham insonga o‘xshab so‘nib, go‘yo tugab borayotganini Maqarning tilidan bayon qiladi. Odamzot beozor jonivorlarga qarshi tish-tirnog‘i bilan qurollanib, ularni qiradi. Insonlar nafaqat hayvonlar, qushlarni, balki dov-daraxtlarni, orolni, ko‘llarni, o‘zini o‘rab turgan tabiatni yo‘q qilyapti. To‘g‘ri, bu isyonni Maqar ichida, ko‘nglida saqlaydi. Ammo qizi - Zuhra bularning barchasini yozadi. Maqar buni o‘qib, qizi uning qalb tug‘yonini, isyonlarini yozganini biladi. Muallif shunday soddadil odamning ichida cheksiz g‘alayon borligini ishonarli tasvirlaydi. Adibning yana bir mahoroti shunkadi, asarda keltirilgan ushbu epizodda ko‘llarning qurushini insonning hayotiga qiyoslaydi. Ko‘llar qurigan sari, inson ham u bilan birga izsiz ketishi mumkinligiga qiyoslanadi. Maqar besh o‘g‘il, besh qizning otasi. Ularni tarbiyalaydi, uyli- joyli qiladi. Maqar qanchalik vazmin, mehribon, muloyim bo‘lsa, o‘g‘illari shunchalik berahm, shafqatiz edi. Buni quyidagi epizodda ham ko‘rish mumkin, Maqar to‘rt yashar nevarasi Nafisa yo‘qolib qoladi. Hamma oyoqqa turadi. Qaralmagan joy qolmaydi. Ko‘cha- ko‘y, anhordan tortib, quduqlargacha qidiriladi. Qizcha hech qaerda yo‘q edi. Shu payt uzoqdan “yo‘lbars” ko‘rinadi. Yonida Nafisa. Hamma yoqqa yuguradi. “yo‘lbars” Nafisani boshlab kelayotgan edi. Kimdir Nafisani yalab-yulqiydi, kimdir “yo‘lbars” ning bo‘yniga osiladi. Lekin hech kim it qizchani qaerdan topib kelganini bilmaydi. Ammo ertasiga Maqarning o‘tovda yashaydigan o‘g‘li Maqsad kelib, Nafisani “yo‘lbars”ga qo‘shib yuborganini, bolalari qizchani uyiga eltib qo‘yishmoqchi bo‘lganda, bunga qarshi bo‘lgani aytib beradi. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmagan Maqar kunda ustida turgan pichoqni qo‘liga olib, uni kundaga shunday bir zarba bilan uradiki, pichoqning keskir yuzi kundaga yarmigacha kirib ketadi. Cholning o‘g‘ilari bemehrligi shu epizodda ta'sirchan aks ettirilgan. Maqar umrning so‘nggi damlarida bolalarining fe'lini ko‘p o‘ylab, bir narsaga amin bo‘ldi. Odam degani



xulqni faqat ota-onadan olmas ekan. Yozuvchi o'z o'rnida inson xarakteri murakkabligini, har bir shaxs individual ekanligi haqida ham mushohada qilishga undaydi.

Maqar o'tgan hayotiga nazar tashlar ekan, u umrida biron-bir gap aytmagan. Haqqim yo'q bunga, deb o'ylagan. Xotini, o'g'illari, qizlari, kelinlari, nabiralari, quda-andalari, qo'ni-qo'shnilar - hammani tinglaydi, tinglaganda ham hurmat bilan, diqqat bilan tinglaydi. Uni yaxshi bilmaganlar, o'zlariga yuqori baho beradiganlar Maqarga bepisand qaraydilar, uni kalaka qiladilar. Lekin Maqar ularga e'tiroz bildirmasdi. Chunki uning qalbi toza va sodda edi. U shu soddaligi bilan dunyoni qalbiga sig'diradi. U shu bilan baxtli edi. Asarni o'qiyotgan kitobxonning xayoliga beixtiyor "Oq kema"dagi Mo'min chol keladi. Haqiqatan Maqar Mo'min cholga o'xshaydimi? Yo'q, albatta, Maqar o'ziga xos xarakterga ega shaxs, Mo'mindan farqli ravishda Maqarning bemehr bo'lsa ham o'g'illari, qizlari, nabiralari bilan uy to'ladi. Ular yig'ilganda, hovlisi to'yxonaga aylanib ketradi. O'zi na bir bilim yurtida, texnikum yo instituda o'qimagan bo'lsa-da, nabiralarning zamonaviyligi, tili burroli va olimligi uni xursand qiladi. Ularning kichkina muvaffaqiyatini tog'day tasavvur qiladi. Chin dildan, yurak-yurakdan, to'lqinlanib, to'lib-toshib quvonadi. Maqar uchun mayda narsaning o'zi yo'q. Masalan, birinchi sinfdagi nabirasining husnixatini ko'rib yig'laydi. Nega yig'laganini so'rashsa, mening yozuvim botqoqda it yo'rtganday, munikini qara, deb quvonchdan ko'ziga yosh oladi. Inson qarigandan keyin sal narsaga ham ko'zini yoshlaydigan bo'lib qoladi. Adibning bu tasvirlari ham kitobxonni ajbalantirmaydi. Maqar og'iriqdan bukchayib qoldi. Yana xayoli baliqqa, ko'lga, qumga, bolalarga ketdi. U bolalarga baliq ulashar ekan, ularning ko'zlaridagi qunochni, kulgularni ko'radi. Bolakay baliqni tutmshga qiynalib, bir amallab tutganidan keyin esa to'rxaltasiga joyl olmay tipirchilaydi. Maqar bolakayni qancha qiyin bo'lmasin baliqni tutishga undaydi. Bu bilan u bolakayni kurashga, harakat va maqsad sari intilsa natija bo'lishiga o'rgatgan ham edi. Yozuvchi kitobxonga unday yashash kerak, bunday yashash kerak deb aql o'rgatmaydi. Maqar hayotining so'nggi damlarida xayolidan o'tayotgan hislar orqali ertaga har bir insonning hayoti shunday bo'lishini, o'lim haq ekanligini eslatib qo'yadi. Maqarning ko'ldan uyiga etib olishi juda uzoq davom etadi. Uyiga etib borsa, hayoti ham tugaydi, deb o'ylaydi. Lekin Maqar ko'chada dumalab qolishdan qo'rqadi, nima bo'lsa ham uyiga etib olishi kerak edi. Yozuvchi Maqarning tilidan insonning umri yakuniga etayotganda yanada yashashni istatishni, xudodan umriga umr qo'shishni, nevara, chevaralarining to'ylarini ko'rishini istab qolishni ishonarli tarzda bayon qiladi. Maqarning qornidagi og'riq kuchaygan sari yashashga bo'lgan istagi ham shuncha zo'r edi. Shu og'riq bilan yashashga ham tayyor edi. Chunki uning endi katta orzusi bor edi. Kichkina chovliqni uylantirishni orzu qiladi. Bu uning hayotidagi eng birinchi orzusi edi. Ozgina bo'lsa-da yashash va ana shu shirin umidga erishish. Lekin hayot beshafqat, vaqt o'tgan sari uning umri shamdek tugab bormoqda edi. Hatto botayotgan quyosh ham unga qoramtir rangda ko'rinadi. Maqar shu damda ham baxtli edi. Chunki u yuvosh, halim edi. U

butun borliqni: odamlarni, ko'lni, qumni, baliqlarni, qishloqni, hatto, ko'chadagi daydi itlarni, qumga borganda tipirchilab qochgan yumronqozig'-u echkiemarlarni, qumpishag-u sichqonlargacha yaxshi ko'rardi. Odamlar esa unga achinib yaxshi ko'rishadi. Maqar sodda va go'l ko'ringan bilan ko'p o'qigan va ko'p narsani bilardi. U har qanday mavzuda - tarix, adabiyot, falsafa, madaniyat va san'at haqida soatlab suhbat qurishi mumkin edi, agar shularni tushunadigan odam topilsa. Ammo bolalari uni hammadan ko'proq yaxshi ko'rishgan. Kech bo'ldi deguncha bolalari uni o'rab olib, ertak so'rashardi. Maqar o'sha damlarni eslarkan, ich-ichidan bildiki, bu dunyoda uning uchun kampiri va bolalari eng yaqin kishilari ekan. Bu uning haqiqati edi. Maqar uyiga etib kelgach, o'g'illarining suhbatini eshitib, umri tugayotgani, o'limi juda yaqinligini his qiladi. Maqarning kichik o'g'li do'xtirlar endi foydasi yo'qligini, sabr qilish kerakligini aytdi, deb opalarini tinchitmoqchi bo'ladi. Maqar shu topda ichidagi og'riq yana xuruj qildi. Bu safar juda qattiq og'riq turdi, butun badanm zir titradi. Adib inson bolasi beshafqatligini Maqarning farzandlari timsolida tasvirlaydi. Besh o'g'lidani bittasi ham otasini do'xtirga olib bormaydi, uning uchun qayg'urmaydi. Hatto onasi aytganda ham "ko'lga bormasin, uyda o'tirsin, shunda og'rimaydi" deydi. Maqar bu so'zlarni eshitadi, indamaydi. Yuragini allanarsa yomon tilganini his qiladi. Maqar hech narsadan bunday ozorlanmagandi, yuragi bunday og'rimagandi. Qalbidagi bu alamni kampiriga bildirmadi. Lekin baxtiga qizlari mehribon. Hayotining so'nggi kunlarida yonida bo'ldi. Ayniqsa, Zuhra otasini juda yaxshi ko'rardi. Uning yonidan bir qadam jilmasdi. U ichida o'zini nega oldinroq otasining oldida bo'lmagani, undan xabar olmagani uchun koyirdi. Ha, odamzot doim shunday bo'lgan, yaqin kishisini yo'qotgandagina uni qanchalik sevishini, yaxshi ko'rishini biladi.

Shuhrat Matkarim bu qissasi bilan insonlarni yaxshilik qilishga, yonidagi yaqinlarini qadrlashga, ularga mehr berishga undaydi. Hayot insonga berilgan bebaho ne'matdir. Maqar butun umri davomida shu hayotni yaxshi ko'rib yashadi. Asar o'qigan kitobxon ham hayotni sevishga o'rganadi, bu haqda mushohada qilishga intiladi.

### **Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shuhrat-matkarim-avval-va-keyin.html>
2. Davronova Sh.G'. "Istiqlol davri o'zbek romanlarida Sharq va G'arb ananalarining badiiy sintezi Filol. fanlari doktori ... diss. – -2019. (Davronova Sh.G. «Filol, the artistic synthesis of Eastern and Western traditions in Uzbek novels of the period of independence. doctor of sciences ... diss. – Samarkand. -2019.)
3. "Yoshlik" jurnali. –T.: 2023. № 2-3.
4. I. Yoqubov. "Badiiy matn va estetik talqin". –T.: "Fan va texnologiya", 2013, 152-b.